

Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti  
boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti,  
pedagogika fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)

95

## **SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BADIY ASARLARNI O‘RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola sinergetik yondashuv asosida boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarning fanlarga oid kompetensiyalarini rivojlanтирish masalalarini tadqiq qiladi. Sinergetik yondashuv o‘quv jarayonini yaxlitlikda tashkil etib, badiiy asarlarni o‘rganishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, tahliliy yondashuv qobiliyatini va fanlararo bog‘lanishlarni anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada badiiy asarlarni tahlil qilish va ularning mazmunini hayotiy voqealar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning fanlararo kompetensiyalarini rivojlanтирish usullari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinergetika, pedagogik texnologiya ,badiiy asarlar, kompetensiya, innovasion texnologiya, ta’lim-tarbiya, didaktik vosita, ta’lim samaradorligi.

**Аннотация.** В данной статье исследуются вопросы развития предметной компетентности учащихся путем обучения художественным произведениям в начальных классах на основе синергетического подхода. Синергетический подход организует учебный процесс в целом, служит формированию у учащихся творческого мышления, аналитического подхода, навыков междисциплинарного понимания при изучении произведений искусства. В статье рассматриваются пути развития межпредметных компетенций студентов путем анализа произведений искусства и связи их содержания с жизненными событиями.

**Ключевые слова:** синергетика, педагогическая технология, произведения искусства, компетентность, инновационная технология, образование, дидактический инструмент, эффективность обучения.

**Annotation.** This article explores the issues of developing students' competence in subjects by teaching artistic works in elementary grades based on a synergistic approach. The synergistic approach organizes the educational process as a whole, and serves to form students' creative thinking, analytical approach, and interdisciplinary understanding skills when studying works of art. The article examines ways of developing students' interdisciplinary competencies by analyzing works of art and connecting their content with life events.

**Key words:** synergistics, pedagogical technology, works of art, competence, innovative technology, education, didactic tool, educational efficiency.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash, ularni mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘rganish orqali bolalarning nutq madaniyatini rivojlanтирish, tasavvurini kengaytirish va badiiy-estetik hissiyotlarini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisobланади.

Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning turli fanlarga oid kompetensiyalarini rivojlanтирish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda sinergetik yondashuv asosida dars jarayonini tashkil qilish o‘zining samaradorligini namoyon etmoqda. Xususan, boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning fanlarga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlanтирish jarayoniga e’tibor qaratish lozim.

Sinergetik yondashuv bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarida turli ko‘nikma va malakalar o‘zaro uyg‘unlikda shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur darajasi va qiziqishlari inobatga olingen holda badiiy asarlar orqali ularda nafaqat adabiy bilimlar, balki tabiatshunoslik, matematika, tarix kabi boshqa fanlarga oid tushunchalar ham rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich sinflar uchun tanlangan badiiy asarlar o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi bilan birga, ular orqali hayotiy tushunchalar, ijtimoiy ko‘nikmalar va fanlarga oid kompetensiyalar ham shakllantirilishi lozim. Masalan:

Tabiatshunoslik faniga oid kompetensiya: Asarda tasvirlangan tabiiy hodisalar yoki tabiat manzaralarini tahlil qilish orqali o‘quvchilar tabiat qonuniyatlarini anglaydilar.

Matematika faniga oid kompetensiya: Hikoyalardagi miqdoriy ma’lumotlarni aniqlash yoki qahramonlar soniga oid masalalarni yechish orqali o‘quvchilar matematik tafakkurlarini rivojlantiradilar.

Ijtimoiy va tarixiy kompetensiyalar: Asarlarning mazmuni orqali turli tarixiy davrlar, ijtimoiy munosabatlar haqida ma’lumot olishadi.

Dars jarayonida foydalaniladigan metodlar

Sinergetik yondashuvni amalda joriy etishda quyidagi metodlardan foydalanish samarador hisoblanadi:

1. Klasterlar yaratish: Asarning mazmuni bilan bog‘liq fanlarga oid ma’lumotlarni klaster shaklida joylashtirish.

2. Integrativ munozaralar: O‘quvchilarni bir necha fanlarni bog‘lagan holda muhokama qilishga jalg qilish.

3. Loyiha usuli: Asar mazmuniga asoslangan kichik tadqiqot loyihamini ishlab chiqish.

Sinergetik yondashuv ta’limda o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, integratsiya va komplekslikni ta’minlab, ularning ko‘p qirrali rivojlanishiga ko‘maklashadi. Ushbu yondashuv boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘rganishda nafaqat estetik ko‘nikmalarni, balki fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv asarlar mazmunini tahlil qilish orqali bolalarning hayotiy hodisalar haqida bilim va tushunchalarini kengaytirishga, ularning ijtimoiy va ilmiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Sinergetik yondashuv – bu turli fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarni bilim olish jarayoniga faol jalg qilishdir. Bu yondashuvda o‘quvchilarining bilimlarini, ko‘nikmalarini va dunyoqarashini yaxlit va tizimli shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarni o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar:

- O‘z ona tili va adabiyotiga oid asosiy bilimlarni egallaydilar.
- Tasavvur, tahlil va ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.
- Badiiy asar orqali ma’naviy va estetik qadriyatlarni o‘rganadilar.

Fanga oid kompetensiyalar – bu o‘quvchilarining tanlangan yo‘nalish bo‘yicha muayyan bilimlarni egallashi, ulardan amaliyotda foydalanish qobiliyati va turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalaridir. Boshlang‘ich sinflarda bu kompetensiyalarni rivojlantirish quyidagilarga asoslanadi:

Tahliliy fikrlash: badiiy asar matnini o‘qib tushunish, syujet va qahramonlar tahlili.

Ijodiy fikrlash: hikoya davomiga ijodiy yondashish, muqobil yakunlarni taklif qilish.

Tarbiyaviy kompetensiyalar: badiiy asarlardagi axloqiy tushunchalarni hayotga tatbiq qilish.

Bunday yondashuvda o‘qituvchilar:

Interfaol metodlarni qo‘llashadi (masalan, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar).

Integratsiya qilinadi – badiiy asarlarni boshqa fanlar (tarix, geografiya, tabiatshunoslik) bilan bog‘lab tushuntiradilar. O‘quvchilarining mustaqil fikrashi va ijodkorligini rag‘batlantiradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy asarlarni nafaqat o‘qib tushunadi, balki ulardan kelib chiqib turli fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga, o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda

qo'llashga o'rganadilar. Bu esa ularning umumiy rivojlanishi va fanga oid kompetensiyalarining shakllanishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni o'rganish jarayonida sinergetik yondashuvni qo'llash o'quvchilarning ko'p qirrali fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat adabiy bilimlarni egallaydilar, balki turli fanlarga oid tushunchalarni o'zlashtirishadi va bu bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rganadilar. Shu bilan birga, ularning mantiqiy fikrashi, ijodiy yondashuvi va hayotga nisbatan ko'nikmalari ham mustahkamlanadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Prezident Farmoni 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2022. – 304 b.
3. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
4. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.
5. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. Nurullayevna A. F. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY OMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISH //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 406-409.
7. Kurbanova S. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ–ЦЕЛОСТНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА КУРБАНОВА ШОИРА НАРЗУЛЛАЕВНА, АБДУЛЛАЕВА ФЕРУЗА, ОЧИЛОВА ГО //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.
9. Qurbanova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH//Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
10. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIY-OMMABOP MAQOLALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLARI: <https://doi.org/10.53885/edins.2022.9.09.034> Abdullayeva Feruza Nurilloyevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.
11. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.
12. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5